

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TURDIYEV ZOVIDJON RUSTAMOVICH**

**AHOLI IQTISODIY FAROVONLIGINI OSHIRISHNING  
NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.01-“Iqtisodiyot nazariyasi”**

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Turdiyev Zoxidjon Rustamovich**

Aholi iqtisodiy farovonligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish .....3

**Турдиев Зохи́дзон Ру́стамович**

Совершенство́вание теоретических основ повышения экономического  
благо́состояния населения .....25

**Turdiev Zokhidjan Rustamovich**

Improving theoretical foundations for the economic prosperity of the population .....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TURDIYEV ZOVIDJON RUSTAMOVICH**

**AHOLI IQTISODIY FAROVONLIGINI OSHIRISHNING  
NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.01-“Iqtisodiyot nazariyasi”**

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari aholisining iqtisodiy farovonligiga oid tegishli ma'lumotlar turli manbalarda taqdim etib kelinmoqda. Jahon Banki guruhining 2024-yil yakunlari yuzasidan taqdim etgan hisobotida, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik bo'limi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisi 8,14 milliard kishidan oshgan<sup>1</sup>. Yer yuzi aholisining bunday sezilarli darajada jadal ortib borishi, jahon iqtisodiyotini rivojlanishiga hamda mamlakatlar aholisining iqtisodiy farovonligiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonda aholining iqtisodiy farovonligiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini tahlil qilish, aholi iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan takliflarni ilmiy jihatdan asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, aholi iqtisodiy farovonligini oshirish mamlakatlar rivojlanishining asosiy strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dunyoda aholining turli ijtimoiy guruhlarini, xususan, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga, ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ta'minotining mexanizmlarini yanada takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan jahonda iqtisodiy farovonlik bo'yicha so'nggi global tadqiqotlar, jumladan, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiyotni yuksaltirish va aholi turmush darajasini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni saqlab turish kabi bir qator yo'nalishlarda doimiy ravishda ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda<sup>2</sup>. Jahon bozori mamlakatlardan erkin raqobatga kirishishni talab etayotgan bir vaqtda dunyoning ko'pchilik mamlakatlari iqtisodiy inqirozga duch kelmoqda. Bunday global raqobat sharoiti har bir mamlakatdan o'zining kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida dunyo hamjamiyatining e'tiboriga loyiq katta natijalarga erishildi. Xususan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga tayanilgan holda "inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish<sup>3</sup> yuzasidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning pirovard maqsadi vatanimiz iqtisodiyotini rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti qatoridan o'rin olishi va ular darajasidagi aholining iqtisodiy farovonligiga erishishidir. Ammo, aholining iqtisodiy farovonligini oshirishda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Ushbu yechimini kutayotgan muammolar

<sup>1</sup> <https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.TOTL>.

<sup>2</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy\\_hamkorlik\\_va\\_taraqqiyot\\_tashkiloti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_hamkorlik_va_taraqqiyot_tashkiloti).

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son farmoni.

qatoriga mamlakat aholisining kambag'allik darajasini past emasligi, mehnatga layoqatli aholi o'rtasida ishsizlikning mavjudligi, inflyatsiya darajasini saqlanib qolayotganligi kabi bir qator omillarni qo'shish mumkin. Jahon iqtisodiyotiga globallashuv sharoitida O'zbekistonda aholining iqtisodiy farovonligini oshirish jarayonini iqtisodiy-statistik tadqiq etish, unga ta'sir etuvchi omillarni baholash dolzarb masala hisoblanadi.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-son farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni, 2020-yil 11-avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4804-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi "Mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta'minlash hamda "Mahalla yettiligi" faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 137-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Turmush farovonligi masalasining dolzarbligi uni tahlil etishga ko'pgina olimlar, mutaxassislar va xalqaro tashkilotlar diqqatini o'ziga qaratdi.

Bozor iqtisodiyotidagi farovonlikni u yoki bu darajada ko'pgina xorij olimlari tahlil etib kelishgan. Bu muammoni daromadlar va iste'mol nuqtayi nazaridan A.Smit, D.Rikardo, A.Marshal, M.Keyns, F.Xayek, G.Sidjvik, K.Viksell, L.Valras kabi olimlar tadqiq etishdi<sup>4</sup>. Uni maxsus o'rgangan G'arb olimlari sirasiga Dj.B.Klark, A.Pigu, V.Paretolarni kiritish mumkin<sup>5</sup>. Ularning asarlarida real daromadlar mohiyati, ularning o'sish omillari, daromatlardagi tengsizlik, aholi iste'moli, uning tarkibi kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Mazkur olimlar turmush darajasini tahlil etishning metodologik tamoyillarini ishlab chiqishdi. Hozirgi zamon "Ekonomiks"lari mualliflari P.Samuels, K.Makkonnell, S.Bryu kabi olimlar

<sup>4</sup> Смит А. «Исследование о природе и причинах богатства народов». – М.: Эксмо, 2009; Риккардо Д. «Начала политической экономии и налогового обложения: избранное». – М.: Эксмо, 2009; Маршалл А. «Основы экономической науки» – М.: Эксмо, 2008; Кейнс Дж.М. «Общая теория занятости, процента и денег. Избранное». – М.: Эксмо, 2009; Майнбурд Е.М. Введение в историю экономической мысли, от пророков до профессоров. – М.: 1996; Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе. – М.: 1994.

<sup>5</sup> Кларк Д.Б. Распределение богатства. – М.: 1992; Майнбурд Е.М. Введение в историю экономической мысли, от пророков до профессоров. – М.: 1996.

asarlarida esa, aholi daromadlarining shakllari, ularning nisbati, daromadlar tabaqalanishi va aholi farovonligi masalalari yoritiladi<sup>6</sup>.

MDH olimlaridan aholi farovonligiga doir masalalarni V.Mayer, N.Volgin, R.Odegov, V.Jerebin, A.Romanov va boshqa olimlar o'rganishgan<sup>7</sup>.

O'zbekiston olimlari qalamiga mansub ishlarda, aholi daromadlari, uning turlari asosan umumiy tarzda ko'rib chiqilgan. Bu boradagi tadqiqot ishlari A.V.Vahobov, R.R.Hasanov, U.S.Yuldasheva, S.L.Alibekova, B.B.Ahmedov, R.F.Jumanova, M.K.Abdullayev, O.X.Mahmudovlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib<sup>8</sup>, ularda aholi farovonligi masalasi chuqur tahlil etilgan, aholi daromadlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, shakllanish mexanizmlari, bozor va nobozor daromadlarning farqlanishi, ular nisbatining o'zgarishi, aholi farovonligiga ta'siri hamda kambag'allik muammolari, O'zbekiston aholisi pul daromadlarining turlari, aholi iste'mol xarajatlarining tarkibi, aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari, oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va farovonligini oshirishning metodologik masalalari tadqiq etilgan. Jumladan:

A.V.Vahobovning monografiyasida<sup>9</sup> ijtimoiy fondlarning mohiyati, tarkibiy tuzilishi, shakllanishi va aholi farovonligini oshirishdagi roli chuqur tahlil etilgan. R.R.Hasanovning monografiyasida<sup>10</sup> aholi daromadlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, shakllanish mexanizmlari, bozor va nobozor daromadlarining farqlanishi, ular nisbatining o'zgarishi, aholi farovonligiga ta'siri hamda kambag'allik muammolari tahlil etilgan. U.S.Yuldashevaning nomzodlik dissertatsiyasida<sup>11</sup> daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlari tahlil etilgan. S.L.Alibekovanning nomzodlik dissertatsiyasida<sup>12</sup> O'zbekiston aholisi pul daromadlarining turlari, aholi iste'mol xarajatlarining tarkibi o'rganilgan. B.B.Ahmedovning nomzodlik dissertatsiyasida<sup>13</sup> ham O'zbekiston aholisi pul daromadlarining turlari, mulkiy farqlari, tarkibiy tuzilishi va uni oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. R.F.Jumanova dissertatsiyasida<sup>14</sup> aholi turmush darajasi kategoriya

---

<sup>6</sup> Самуэльсон П. Экономика. Т.2. – М.: “АЛГОН” ВНИИСИ, 1992; Макконнелл К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. Т 2. – М.: 1992.

<sup>7</sup> Майер Ф.В. Уровень жизни населения СССР. – М.: Экономика, 1987; Волгин Н.А., Одегов Ю.Г. Экономика труда (социально-трудовые отношения). – М.: Экзамен, 2003; Жеребин В.М., Романов А.Н. Уровен жизни населения. – М.: ЮНИТИ. 2002.

<sup>8</sup> Vahobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. – Т.: Sharq, 2003; Xasanov R.R. Bozor munosabatlari: mohiyati, tarkibiy tuzilishi va tabaqalanishi. – Т.: 2004; Yuldasheva U.S. Iqtisodiyotning transformatsiyalanishi jarayonida aholi daromadlarining shakllanishi va taqsimlanishi: i.f.n. dis. avtoref. – Т.: 2001; Алибекова С.Л. Формирование и факторы роста уровня жизни населения Узбекистана: автореф. дис., к.э.н. – Т.: 2003; Ахмедов Б.Б. Денежные доходы и расходы населения Республики Узбекистан в условиях переходной экономики: автореф. дис., к.э.н. – Т.: 2002; Djumanova R.F. Aholi turmush darajasi: ko'rsatkichlari va uni oshirish yo'llari: i.f.n. dis. avtoref. – Т.: 2008; Abdullayeva M.K. Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo'nalishlari. i.f.n. dis. avtoref. – Т.: 2008; Mahmudov O.X. Oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning metodologik asoslari. DSc dis. avtoref. – Т.: 2022.

<sup>9</sup> Vahobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. – Т.: Sharq, 2003: 320-B.

<sup>10</sup> Xasanov R.R. Bozor munosabatlari: mohiyati, tarkibiy tuzilishi va tabaqalanishi. – Т.: 2004: 192-B.

<sup>11</sup> Yuldasheva U.S. Iqtisodiyotning transformatsiyalanishi jarayonida aholi daromadlarining shakllanishi va taqsimlanishi: i.f.n. dis. avtoref. – Т.: 2001: 21-B.

<sup>12</sup> Алибекова С.Л. Формирование и факторы роста уровня жизни населения Узбекистана: автореф. дис., к.э.н. – Т.: 2003: С. 24.

<sup>13</sup> Ахмедов Б.Б. Денежные доходы и расходы населения Республики Узбекистан в условиях переходной экономики: автореф. дис., к.э.н. – Т.: 2002: С. 21.

<sup>14</sup> Djumanova R.F. Aholi turmush darajasi: ko'rsatkichlari va uni oshirish yo'llari: i.f.n. dis. avtoref. – Т.: 2008: 26-B.

sifatida, uning modellari va ko'rsatkichlari, daromadlardagi tengsizlik masalalari nazariy jihatdan baholangan. M.K.Abdullayevaning nomzodlik ishida<sup>15</sup> ijtimoiy himoyaning mohiyati, modellari tahlil etilgan, uni ta'minlashda mikrokreditning roli ochib berilgan. O.X.Mahmudovning doktorlik ishida<sup>16</sup> oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va farovonligini oshirishning metodologik masalalari tadqiq etilgan.

Yuqorida qayd etilgan dissertatsiyalarda aholi farovonligi masalasi nominal daromadlar tahlili asosida yoritilgan bo'lib, ularda real daromadlarni tahlil etishga jiddiy e'tibor berilmagan, farovonlikning aniq omillari va kelajakdagi o'sish imkoniyatlari chuqur ko'rib chiqilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Yangi O'zbekiston sharoitida aholi iqtisodiy farovonligini izchil oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

aholi iqtisodiy farovonligi tushunchasining nazariy asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish;

aholining umumiy daromadlariga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarning aholi iqtisodiy farovonligini oshirishdagi tajribasini o'rganish;

aholi iqtisodiy farovonligini oshirishda ijtimoiy sohalarning ta'sirini ko'rib chiqish;

o'rta istiqbolda O'zbekistonda aholi iqtisodiy farovonligini qay darajada o'zgarishi yuzasidan prognoz ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektı sifatida** O'zbekiston aholisining iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi sohalar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib aholi iqtisodiy farovonligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ishini bajarishda ilmiy mushohada, statistik guruhlash, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy mantiqiy umumlashtirish, ekonometrik tahlil hamda prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, "aholi iqtisodiy farovonligi" tushunchasi klassik iqtisodiy maktabning farovonlik darajasini bozor mexanizmi va erkin raqobat ta'minlashi, marjinalistik maktabning farovonlikni asosiy o'lchovi sifatida resurslarni samarali taqsimlanishi, keynscha maktabning ish bilan ta'minlanganlik va davlatning iqtisodiyotdagi roli kabi qarashlarini uyg'unlashtirgan holda ekologik

---

<sup>15</sup> Abdullayeva M.K. Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo'nalishlari. i.f.n. dis. avtoref. – T.: 2008: 23-B.

<sup>16</sup> Maxmudov O.X. Oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning metodologik asoslari. DSc dis. avtoref. – T.: 2022: 32-B.

barqarorlikni ta'minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, aholi farovonligini oshirishga bandlik darajasining ta'sir jihatlarini hisobga olgan holda mahallalarda oilaviy tadbirkorlik va aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yoshlar va xotin-qizlarning daromad keltiruvchi ishlarda bandligini ta'minlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish taklifi asoslangan;

tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqarolarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng dastlabki uch oy mobaynida olingan bino va inshootning ijara to'lovini to'lash uchun aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda aholi iqtisodiy farovonligi darajasiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida farovonlik darajasining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nazariy tadqiqotlar asosida uslubiy yondashuvga ko'ra, "aholi iqtisodiy farovonligi" tushunchasi ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

aholi iqtisodiy farovonligini oshirish maqsadida davlatning yangi ish o'rinlarini yaratgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilishi yuzasidan keng ko'lamli moliyaviy dasturlarini yanada jadallashtirish borasida imtiyozli kreditlar ajratish talablarini yengillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

aholining jon boshiga umumiy daromadlariga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik model asosida baholash bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan;

ishsiz aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan davlatning bandlik siyosatini yanada jadallashtirish yuzasidan tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqarolarga subsidiyalar ajratish taklifi asoslangan;

iqtisodiy farovonlikni oshirishga qaratilgan makroiqtisodiy darajadagi takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Jahon Banki, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aholi farovonligini yuksaltirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "Iqtisodiy nazariya", "Yashil iqtisodiyot" fanlarini takomillashtirish bo'yicha darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aholi iqtisodiy farovonligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, "aholi iqtisodiy farovonligi" tushunchasi klassik iqtisodiy maktabning farovonlik darajasini bozor mexanizmi va erkin raqobat ta'minlashi, marjinalistik maktabning farovonlikni asosiy o'lchovi sifatida resurslarni samarali taqsimlanishi, keynscha maktabning ish bilan ta'minlanganlik va davlatning iqtisodiyotdagi roli kabi qarashlarini uyg'unlashtirgan holda ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan berilgan taklifidan 70310103-Makroiqtisodiyot hamda 70310301-Mintaqaviy iqtisodiyot magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan "Yashil iqtisodiyot" fanidan darslik hamda o'quv dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 25-iyuldagi 02/01-01-298-son ma'lumotnomasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 27-dekabrda 448-sonli buyrug'i). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiyot nazariyasini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga hamda 70310103-Makroiqtisodiyot, 70310301-Mintaqaviy iqtisodiyot magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olayotgan magistrlar va shuningdek, ilmiy tadqiqotchilarda "aholi iqtisodiy farovonligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuniga oid bilim va ko'nikmalarining rivojlanishiga hissa qo'shgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, aholi farovonligini oshirishga bandlik darajasining ta'sir jihatlarini hisobga olgan holda mahallalarda oilaviy tadbirkorlik va aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yoshlar va xotin-qizlarning daromad keltiruvchi ishlarda bandligini ta'minlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish taklifi 70310103-Makroiqtisodiyot hamda 70310301-Mintaqaviy iqtisodiyot magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan "Yashil iqtisodiyot" fanidan darslik va o'quv dasturini tayyorlashda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida o'z aksini topgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 27-dekabrda 448-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 10-yanvardagi 14-son ma'lumotnomasi asosida amaliyotga joriy etilgan). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida mahallalarda oilaviy tadbirkorlik va aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mazmuniga oid bilim va ko'nikmalarining rivojlanishiga hissa qo'shgan hamda mamlakatimizda davlat tomonidan tegishli tartibda garovsiz kreditlar ajratish amaliyoti yo'lga qo'yilgan;

tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqarolarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng dastlabki uch oy mobaynida olingan bino va inshootning ijara to'lovini to'lash uchun aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qabul qilinib amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 10-yanvardagi 14-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida shaxslarning resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Subsidiyalar portalini ([www.subsidiya.mf.uz](http://www.subsidiya.mf.uz))da ishsiz, kam ta'minlangan oilalar a'zolari, tashqi mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarga qishloq xo'jaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida kiritish rukni qo'shilib, aholini tadbirkorlikka jalb qilish imkoniyatlari oshgan;

O'zbekistonda aholi iqtisodiy farovonligi darajasiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida farovonlik darajasining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2025-yil 10-yanvardagi 14-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonining barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash bo'limida "2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish" vazifasi sifatida o'z aksini topgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy g'oyalari va xulosalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari dissertant e'lon qilgan 15 ta ilmiy ishda, jumladan, 7 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarda o'z ifodasini topgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 123 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslab berilgan. Unda muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi hamda vazifalari bayon etilgan. Tadqiqotning obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi aniq ifodalab berilgan. Tadqiqotning amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ularni ilmiy va amaliy

ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yuzasidan asosli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Aholi iqtisodiy farovonligi va uning darajasini baholashning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning ilmiy-nazariy, metodologik jihatlari tadqiq etilgan, jumladan, aholi iqtisodiy farovonligi to'g'risidagi nazariyalarning mazmuni va asosiy g'oyalari, farovonlikka ham bozor mexanizmi, ham davlatning iqtisodiyotdagi roli orqali erishilishini, farovonlikning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari, aholi iqtisodiy farovonligini oshirishda nominal va real daromadlarning roli bayon etilgan, aholi iqtisodiy farovonligi to'g'risidagi nazariy qarashlar tahliliga asoslanib, aholi iqtisodiy farovonligi tushunchasiga mualliflik ta'rif keltirilgan, aholi iqtisodiy farovonligi darajasini baholashning uslubiy masalalari o'rganilgan.

Turli xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tahlillariga ko'ra, xususan, Jahon banki tadqiqotlarining yillik hisobotlarida inson taraqqiyoti indekslariga qarab mamlakatlardagi farovonlikka baho beriladi. Butun dunyoda aholi farovonligi va uni yuksaltirish taraqqiyotning bosh masalasi sifatida qaralib kelinadi. Ma'lumki, aholi iqtisodiy farovonligi iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllangan davrdan boshlab hozirga qadar u yoki bu darajada o'rganilib kelingan. Iqtisodiy boylik aholi farovonligining asosiy manbai sifatida baholangan. Hozirgi nazariy tahlillarga tayanib, iqtisodchi olimlar va dunyodagi turli xalqaro ilmiy, statistik tashkilotlar farovonlikning ikkita jihati borligini, bular aholining iqtisodiy farovonligi hamda aholining ijtimoiy farovonligi ekanligini qayd etishadi. Iqtisodiy farovonlik aholi iste'molining hajmi, tarkibi va uning jamg'arishi bilan tavsiflansa, ijtimoiy farovonlik aholining hayot kechirish sharoitining qulayligini bildiradi.

Aholi iqtisodiy farovonligi xususidagi nazariy qarashlar to'plangan boy nazariy merosga tayanadi, biroq keyingi vaqtda yuz bergan ko'plab keng ko'lamlı doimiy o'zgarishlarni umumlashtirib, ularga aniqlik va yangiliklar kiritiladi.

Aholi farovonligi to'g'risidagi bildirilgan ilmiy nazariy qarashlar tahliliga asoslanib, aholi iqtisodiy farovonligi tushunchasiga mualliflik ta'rifimizni keltirib o'tamiz.

Olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida “aholi iqtisodiy farovonligi” tushunchasini ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan takomillashtirish taklif etilgan.


Bizning fikrimizcha, nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, “aholi iqtisodiy farovonligi” bu klassik iqtisodiy maktabning farovonlik darajasini bozor mexanizmi va erkin raqobat ta'minlashi, marjinalistik maktabning farovonlikni asosiy o'lchovi sifatida resurslarni samarali taqsimlanishi, keynscha maktabning ish bilan ta'minlanganlik va davlatning iqtisodiyotdagi roli kabi qarashlarini uyg'unlashtirgan holda ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdir.

Bizningcha, aholi iqtisodiy farovonligi birinchi navbatda, aholining yuqori daromadlarga ega bo'lishi, mamlakatdagi kambag'allik darajasining past ko'rsatkichlarda bo'lishi, ish o'rinlarining barqarorligini saqlanishi hamda jamiyatning umumiy boyligi kabi bir nechta omillarga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, bu tushuncha iqtisodiy siyosat, inflyatsiya darajasi, investitsiyalar va resurslarning

samarali taqsimlanishiga ham bog‘liqdir. Jamiyatdagi ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy farovonlikning muhim va ajralmas qismi hisoblanadi.

Atrof-muhitni imkon qadar asl holida saqlab qolish, eng asosiysi unga zarar yetkazmasdan izchil rivojlanish, shubhasiz ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Atrof-muhitning ifloslanib borishi hamda tabiiy resurslarning ortiqcha isrof qilinishi aholining sog‘lig‘iga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy farovonlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ziyon keltiradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, “aholi iqtisodiy farovonligi” tushunchasini ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan takomillashtirish quyidagi rasm orqali ifodalangan.



**1-rasm. “Aholi iqtisodiy farovonligi” tushunchasining zamonaviy talqini<sup>17</sup>**

<sup>17</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning “**Aholi iqtisodiy farovonligini belgilovchi omillar**” deb nomlangan ikkinchi bobida daromadlar taqsimotining aholi iqtisodiy farovonligiga ta’siri tahlil qilingan, bozor va nobozor daromadlar resurslarga qarab va ijtimoiy zarurat tufayli taqsimlash qonunining bosqichlari ko‘rib chiqilgan, aholi iqtisodiy farovonligini oshirishda davlatning roli ochib berilgan, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish orqali aholi iqtisodiy farovonligini ta’minlash o‘rganilgan, aholi daromadlariga ta’sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsion-regression bog‘liqlikni ekonometrik modellar asosida tahlili amalga oshirilgan. Aholi farovonligini oshirishda bandlik darajasining ta’sir jihatlari hisobga olingan, tadbirkorlik va aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish taklifi hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqarolarga subsidiyalar ajratish taklifi asoslangan.

Iqtisodiy farovonlikning resurslari ishlab chiqarishga bog‘liq bo‘lsada, ular yaratilgan tovar va xizmatlarning taqsimlanishi natijasida shakllanadi. Bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos taqsimot qonuni mavjud bo‘lib, unga asosan iqtisodiyotning har bir subyekti o‘ziga tegishli resurslarning miqdori, sifati va ishlatilish samaradorligiga binoan yaratilgan tovar va xizmatlarning bozor qiymatining bir qismini o‘zining daromadi sifatida o‘zlashtiradi.

Aytilgan bozor taqsimoti qonuni ta’sirida bozor daromadlari shakllanadi. Biroq hozirgi aralash iqtisodiyotda bozor munosabatlari ustuvor bo‘lgani bilan birgalikda nobozor munosabatlar ham mavjudki, bular resurslarni hisobga olmagan holda, daromadlarni qisman taqsimlanishiga olib keladi.

Daromadlar resurslarga qarab va ijtimoiy zarurat tufayli taqsimlash qonuni ta’sirida shakllanadi. Bu qonunlar daromadlarni taqsimlashga ko‘p bosqichli xarakter beradi.

Birinchi bosqich dastlabki bo‘lib, bu yerda yalpi mahsulot qiymati ishlab chiqarishda qatnashgan resurslarning egalari, ya’ni ishchilar, tadbirkorlar, yer egalari, pul egalari o‘rtasida taqsimlanadi. Natijada, ular ish haqi, foyda, renta va foiz shaklidagi daromadga ega bo‘ladilar. Bular birlamchi va asosiy daromadlar hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda asosiy daromadlar ularning egasi bilan davlat o‘rtasida taqsimlanadi, natijada bu daromadda majburiy tarzda undirilgan soliqlar va boshqa to‘lovlar davlatning daromadiga aylanadi.

Uchinchi bosqichda davlat daromadlari taqsimlanib, davlat tizimida band bo‘lgan, ya’ni byudjet tashkilotlarida ishlovchi ishchi va xizmatchilar daromadi shakllanadi, bular birinchi darajali hosila daromadlar hisoblanadi. Ammo bu daromaddan undirilgan soliqlar yana qaytadan davlat daromadiga aylanadi. Byudjetga va undan tashqari fondlarga o‘tkazilgan daromadlarni fiskal daromadlar deb aytish mumkin.

To‘rtinchi bosqichdagi taqsimlash birinchi darajali hosila daromadlarining egalari bilan nodavlat-notijorat tashkilotlari o‘rtasida bo‘ladi. Uning natijasida shu tashkilotlarning daromadi paydo bo‘lib, bu ikkinchi darajali hosila daromadlarni tashkil etadi.

Beshinchi bosqichda barcha iqtisodiyot subyektlari o‘z daromadlarini o‘zi taqsimlaydi. Bu taqsimlashning yakuniy bosqichi bo‘lib, bundan so‘ng daromadlar iste‘mol yoki jam‘arish uchun yuboriladi.

Xulosa qilib aytganda bozor tizimidagi taqsimlash ko‘p bosqichli bo‘lib, uning natijasida aholining asosiy va hosila, shuningdek, bozor hamda nobozor daromadlari yuzaga keladiki, bular farovonlikning aniq manbai hisoblanadi.

O‘zbekistonda yuzaga kelgan erkin bozor tizimi daromadlarning diversifikatsiyasini, ya‘ni yangi turlarini ro‘yobga chiqaradi. Bular jumlasiga tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar, uning ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan yakka mehnat faoliyati natijasida ishlab topilgan daromadlar hamda mulkiy daromadlar kiradi.

Yakka farovonlik darajasini oxir-oqibatda har bir kishining iste‘moli belgilaydi, bu esa mamlakatlar aholisining jon boshiga hisoblangan daromadlariga bog‘liq. Mamlakatda ishlab chiqarish qanchalik ko‘p bo‘lsa, pul daromadlari shunchalik ko‘p bo‘ladi. Ammo aholining iqtisodiy farovonligi ortishi uchun yalpi daromadlar hajmi aholi soniga nisbatan jadalroq o‘shishi zarur. Buni dunyo mamlakatlari amaliyoti tasdiqlaydi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Dunyo miqyosida aholi jon boshiga hisoblangan daromadlarning o‘zgarishi<sup>18</sup>

Ko‘rsatkichlar (%)	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Yalpi milliy daromad hajmining o‘shishi	3,2	2,7	2,0	-4,4	6,7	3,2	2,6
Jon boshiga hisoblangan daromad hajmining o‘shishi	3,0	1,0	1,0	-5,0	4,0	2,7	2,2
Aholi sonining o‘shishi	1,0	1,2	1,0	1,0	0,8	0,9	0,9

Jahonning yalpi milliy daromadi hajmi jahon aholisining sonini o‘shishiga nisbatan yil sayin jadalroq o‘shib borganligi sababli jon boshiga hisoblangan o‘rtacha aholi daromadlari ham ortib borgan. Biroq, iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda aholining g‘oyat sekin o‘shishi iqtisodiy o‘shish sharoitida jon boshiga hisoblangan o‘rtacha aholi daromadlarining tez o‘shishiga olib keladi. Aksincha, iqtisodi zaif mamlakatlarda aholining tez o‘shishi jon boshiga hisoblangan o‘rtacha aholi daromadlarining ko‘payishini sekinlashtiradi.

Mamlakat aholisi sonining iqtisodiyoti bilan muqobilligini o‘sha mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga nisbatan baholash to‘g‘ri bo‘ladi. Aholining soni va uning tarkibi daromadlarga ta‘sir etadi, lekin bu farovonlikni belgilovchi asosiy omil emas,

<sup>18</sup> <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.MKTP.KD.ZG>. Jahon Bankining rasmiy ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

chunki asosiy omil bu ishlab chiqarish salohiyati bo‘lib, daromadlar eng avval shunga bog‘liqdir.

O‘zbekistonda davlatning iqtisodiy siyosatini ikkita e’tiborli jihati bor, ya’ni:

1. Davlat asosiy islohotchi sifatida bozor islohotlariga boshchilik qildi, uning rahbarligida bozor iqtisodiyotiga asos solindi. Natijada, bozor mexanizmi yuzaga keldiki, bu farovonlikka xizmat qiladi.

2. Davlat yangidan shakllangan iqtisodiyotni o‘z holiga tashlab qo‘ymay, uni tartiblab turish chora-tadbirlarini izchillik bilan amalga oshirdi. Natijada, iqtisodiyot barqaror va jadallashib o‘sib bordi. Bu bilan farovonlikni o‘sishi uchun asos yaratildi.

Bu shundan darak beradiki, davlat iqtisodiyotni o‘sib borishini ta’minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib bergani holda, aholi iqtisodiy farovonligini ortib borishiga hissa qo‘shadi. Bu davlatning farovonlikni ta’minlashdagi bilvosita ishtiroki hisoblanadi.

Davlat barcha choralar bilan yangi ish o‘rinlari yaratilishini rag‘batlantiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilishi yuzasidan keng ko‘lamli moliyaviy dasturlarni amalga oshiradi.

Respublikamizdagi tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kreditlar miqdori 2020-yil 127 207,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu tijorat banklarining jami 366 121,1 mlrd. so‘mlik aktivlarini 34,7 foizini tashkil etgan. 2024-yilga kelib ajratilgan jami kreditlar miqdori 287 181,5 mlrd. so‘mni tashkil etgani holda bu tijorat banklarining jami 769 330,4 mlrd. so‘mlik aktivlarini 37,3 foizini tashkil etgan.

## 2-jadval

### Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar, (mlrd. so‘m)<sup>19</sup>

Davr	Hammasi	Ajratilgan kreditlar						
		milliy valyutada				chet el valyutasida		
		jami	yuridik shaxslarga	yakka tartibdagi tadbirkorga	jismoniy shaxslarga	jami	yuridik shaxslarga	yakka tartibdagi tadbirkorga
2020	127207,5	79040,6	48010,0	2564,0	28466,6	48167,0	48064,8	102,1
2021	166673,5	102258,6	58637,8	3099,9	40520,9	64415,0	64161,7	253,3
2022	203126,6	132662,3	64324,4	3049,4	65288,5	70464,3	69804,2	660,2
2023	251401,5	173498,9	69353,8	3910,4	100234,8	77902,6	75830,5	2072,2
2024	287181,5	193262,9	80031,0	8556,9	104675,0	93918,6	89462,6	4456,1

<sup>19</sup> <https://cbu.uz/oz/statistics/buletin/2664797/> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni 5.3.3-jadvali asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Respublikamizdagi tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning eng ko'p qismi yuridik shaxslarga, undan keyin esa jismoniy shaxslarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilayotganini ko'rish mumkin.

Olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida aholi iqtisodiy farovonligini oshirish maqsadida davlatning tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilishi yuzasidan keng ko'lamli moliyaviy dasturlarini yanada jadallashtirish borasidagi imtiyozli kreditlar ajratish talablarini yengillashtirish taklif etilgan.

Bizning fikrimizcha, nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, aholi farovonligini oshirishga bandlik darajasining ta'sir jihatlarini hisobga olgan holda mahallalarda oilaviy tadbirkorlik va aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yoshlar va xotin-qizlarning daromad keltiruvchi ishlarda bandligini ta'minlash uchun davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, jumladan, garovsiz kreditlar ajratish lozim.

Davlatning aholi iqtisodiy farovonligini oshirishdagi ishtiroki uning olib boradigan bandlik siyosati bilan ham amalga oshiriladi. Bu siyosat aholining bandligini oshirishga, yangi yaratiladigan ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratiladi. Mamlakat aholisi sonining ko'payib borishi ishlab chiqaruvchilar sonining ham ko'payib borishini bildiradi.

Jahon Banki o'zining rasmiy sayti orqali taqdim etib boradigan ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo aholisi soni 8,14 mlrd. kishini tashkil etgan bo'lib, ushbu dunyo aholisining 17,4 foizi (1,42 mlrd. kishi) yuqori daromadli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda yashagani holda jahon YaMD hajmining (hozirgi xalqaro dollarda hisoblanganda 196,1 trln. dollar) 48,0 foizini (hozirgi xalqaro dollarda hisoblanganda 94,1 trln. dollar) yaratdi. Jahonning boshqa iqtisodiyoti jihatidan pastki o'rta hamda kam daromadli rivojlanmagan mamlakatlarida esa, dunyo aholisining 46,1 foizi (3,75 mlrd. kishi) yashagani holda, jahon YaMD hajmining 16,5 foizi (hozirgi xalqaro dollarda hisoblanganda 32,3 trln. dollar) gina qismi yaratildi xolos<sup>20</sup>.


O'zbekistonda ham so'nggi yillarda doimiy yashovchi aholi sonining jadal sur'atlar bilan o'sishi kuzatilmoqda. Xususan 2017-yilda mamlakatdagi doimiy yashovchi aholi soni 32,1 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 36,8 million kishini tashkil etdi. Davlat o'zining qo'lidagi mavjud vositalari orqali ish o'rinlari yaratilishini ham qo'llab-quvvatlaydi, xususan yangi ish o'rinlarini yaratganlarga subsidiyalar taqdim etadi.

Bundan tashqari doimiy ravishda mamlakatning aholi bandligini oshirishga doir davlat dasturlari ishlab chiqiladi. Mazkur aholi bandligini oshirishga doir davlat dasturlariga binoan har yili respublikada ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilib, ularning soni yanada ortib boradi.

Respublika aholisi orasida ish bilan bandlar soni 2017-yilda 13 520,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib esa, 14 260,0 ming kishini tashkil etgan. Aholining umumiy daromadlarini o'sishida bandlikning oshib borishi asosiy omillardan biriga aylandi.

---

<sup>20</sup> <https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.TOTL>. Jahon Bankining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.



**2-rasm. O'zbekistonda yangi yaratilgan ish o'rinlari soni, (dona)<sup>21</sup>**

Aholi bandligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari yangi ish o'rinlarini eng avvalo kichik korxonalarda, yakka tartibdagi tadbirkorlik, kasanachilik, fermer va dehqon xo'jaliklari kabi sohalarda yaratishni ko'zda tutadi, chunki bu sohalar sermehnat bo'lganidan ish o'rinlari kapital sig'imining kichikligi, yuksak malakaga ega bo'lish kadrlar talab etilmasligi, kengayib borayotgan ichki, xususan, mahalliy bozorga ishlashi bilan tavsiflanadi. Bu aholi bandligini oshirishning eng qulay sohalari hisoblanadi.

Olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida ishsiz aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan davlatning bandlik siyosatini yanada jadallashtirish yuzasidan tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqarolarga subsidiyalar ajratishni taklif etmoqdamiz.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Subsidiyalar portali orqali 156 turdagi davlat subsidiyalari, kompensatsiyalari va grantlari ajratilib kelinmoqda. Xususan, ushbu portal orqali 9 ta sohaga tegishli bo'lgan subsidiyalarni olish mumkin. Bular Aholini bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi va agrosanoat, ta'lim sohasini rivojlantirish, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohasini rivojlantirish, eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash, turizm sohasini rivojlantirish, geologiya va neft-gaz kompleksi, transport sohasini rivojlantirish, uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga ajratiladigan subsidiyalardan iborat.

<sup>21</sup> [siat.stat.uz/reports-filed/4544/table-data](https://siat.stat.uz/reports-filed/4544/table-data). O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Subsidiyalar portali orqali yuridik shaxslarga ajratilgan subsidiyalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, solishtirish uchun qishloq xo‘jaligi va agrosanoat yo‘nalishida 29 129 ta yuridik shaxslarga subsidiyalar to‘lab berilgan bo‘lsa, aholini bandligini ta‘minlash hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida esa 5 884 ta yuridik shaxslarga subsidiyalar to‘lab berilgan<sup>22</sup>.

Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqarolarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgandan so‘ng dastlabki uch oy mobaynida olingan bino va inshootning ijara to‘lovini to‘lash uchun aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish lozim.

O‘zbekistondagi iqtisodiy salohiyatning ortib borishi mamlakat aholisi sonining o‘shishiga qaramay aholi daromadlarining jadal o‘shishini ta‘minladi. So‘nggi yillarda aholining kam ta‘minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishda real sifatli o‘zgarishlarga erishildi. Belgilangan huquqiy va institutsional mexanizmlar, ayniqsa, bolali oilalar, qariyalar va nogironlar orasidagi kambag‘allik darajasini pasaytirish imkonini berdi.

O‘zbekistonda aholining jon boshiga umumiy daromadlari jadal sur‘atlar bilan oshib borayotgan sharoitda unga ta‘sir etayotgan omillarni ilmiy jihatdan baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu maqsadda mamlakatimiz aholisining jon boshiga umumiy daromadlariga ta‘sir etuvchi omillarni ekonometrik usullardan foydalangan holda tahlil qilindi.

Buning uchun respublikamizning 14 ta hududi kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining 2017–2024-yillardagi ko‘rsatkichlari bilan unga ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik munosabatlarini aks ettiruvchi panel ma‘lumotlariga xos bo‘lgan ekonometrik modellardan foydalanildi.

Ekonometrik modellarga kiritiladigan natijaviy omil sifatida – aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (joriy narxlarda ming so‘m)  $Y$ ; ta‘sir etuvchi omillar sifatida esa – yalpi ichki mahsulot hajmi (joriy narxlarda, mlrd. so‘m)  $X_1$ , yakuniy iste‘mol xarajatlari hajmi (joriy narxlarda, mlrd. so‘m)  $X_2$ , yalpi jamg‘arish hajmi (joriy narxlarda, mlrd. so‘m)  $X_3$ , davlatning ijtimoiy soha xarajatlari hajmi (joriy narxlarda, mlrd. so‘m)  $X_4$ , iste‘mol narxlari indeksi (yillik dinamika, foiz)  $X_5$  olindi (omillarning o‘lchov birliklarining ko‘rsatkichlar turlicha bo‘lganligi sababli, ularning qiymatlari logarifmlab olindi).

Ma‘lumotlar bo‘yicha tavsifiy statistika o‘tkazildi. Tavsifiy statistika ma‘lumotlarni umumlashtirish, ma‘lumotlar taqsimlanishini tahlil qilish, anomal kuzatishlarni aniqlash, turli guruhlarni taqqoslash, ma‘lumotlar mosligini tekshirish uchun qo‘llaniladi.

Panel ma‘lumotlari asosida tuziladigan ekonometrik modelga omillarni tanlab olish uchun korrelyatsion tahlil o‘tkazildi. Buning uchun omillar o‘rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblab chiqildi. Ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasida multikollinearlik aniqlanmadi.

---

<sup>22</sup> <https://subsidiya.mf.uz/uz/statistics>.

Panel ma'lumotlari ma'lumotlar tarkibidan (strukturasidan) kelib chiqib turli modellardan, ya'ni Pooled OLS estimator (POLSE), Fixed effects estimator (FEE) hamda Random effectsestimator (REE) modellaridan foydalanishga imkon beradi. Jumladan:

1. Umumlashtirilgan regressiyali modellar Pooled OLS estimator (POLSE) bu individual va vaqt farqlarini hisobga olmaydigan (barcha obyektlar bir xil (masalan viloyatlar) hech qanday alohida individual xususiyatlar mavjud emas) modellardir.

2. O'zgarmas samarali modellar Fixed effects estimator (FEE) panel obyektlari o'rtasidagi individual farqlar bog'liq o'zgaruvchiga ta'sir qilishi kutilganda hamda bu farqlarni hisobga olish kerak bo'lganda (vaqt o'tishi bilan o'zgaraydigan (masalan viloyatning barqaror xususiyatlari) individual xususiyatlarni hisobga oladi) foydalaniladi.

3. Tasodifiy samarali modellar Random effects estimator (REE) bunda agar individual farqlar ta'sir etuvchi omillar bilan bog'liq emas deb hisoblansa, tasodifiy ta'sir modellaridan foydalanish (bu model ham individual xususiyatlarni hisobga oladi, lekin ular tasodifiy va ta'sir etuvchi o'zgaruvchilar bilan bog'liq emas deb hisoblaydi) mumkin.

